

Linguocultural characteristics of emojis used in social networks

Umida MAKHMUDOVA¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

Emoji,

intercultural

communication,

cultural expression,

emotional interpretation,

colorful emojis,

inclusivity,

psychological perception,

demographic characteristics.

ABSTRACT

This article analyzes the role of emojis in intercultural communication within the context of language evolution on social networks. Emojis, through their widespread use and expressive features, illuminate emotional and semantic differences between various cultures, creating new forms of communication. The study examines positive and negative interpretations of emojis, variations in colors and cultural symbols, as well as characteristics that reflect personal and social distinctions.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp24-30>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijtimoiy tarmoqlarda foydalaniladigan emoji-larning lingvomadaniy xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Emoji, madaniyatlararo

muloqot,

madaniy ifoda,

hissiy talqin,

rangli emoji-lar,

inklyuzivlik,

psixologik idrok,

demografik xususiyatlar.

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tilning rivojlanishi kontekstida emoji-larning madaniyatlararo muloqotdagi roli tahlil qilinadi. Emoji-lar o'zining keng tarqalganligi va ifodalovchi xususiyatlari orqali, turli madaniyatlar orasidagi hissiy va semantik farqlarni yoritib, muloqotning yangi shakllarini yaratadi. Emoji-larning ijobiy va salbiy talqinlari, ranglar va madaniy ramzlarning o'zgarishi, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy farqlarni aks ettiruvchi xususiyatlari tahlil qilinadi.

¹ Associate Professor, Department of English Language and Literature, Karshi State University.
E-mail: umidamahmudova1010@gmail.com

Лингвокультурные особенности эмодзи, используемых в социальных сетях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эмодзи,
межкультурная
коммуникация,
культурное выражение,
эмоциональная
интерпретация,
цветные эмодзи,
инклюзивность,
психологическое
восприятие,
демографические
особенности.

В статье анализируется роль эмодзи в межкультурной коммуникации в контексте развития языка в социальных сетях. Эмодзи, благодаря своей распространенности и выразительным характеристикам, освещают эмоциональные и семантические различия между культурами, создавая новые формы коммуникации. Анализируются положительные и отрицательные интерпретации эмодзи, изменения в цветах и культурных символах, а также их свойства, отражающие личные и социальные различия.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar davrida Emojilar bugungi ommaviy til sifatida shakllanib, foydalanuvchilarga turli madaniy kontekstlarda kayfiyat, hissiyot, g'oya va o'ziga xos jihatlarini ifodalash imkonini beradi. Ularning tarkibida ko'proq madaniy ramz va xilma-xil tasvirlar yig'indisi mavjud ekan, emojilar madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etib kelaveradi. Tadqiqotimiz emojilardagi turli madaniyatlarning ifodalanishini tahlil qilish, emojilarning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda emojilarning turli madaniy kontekstlarda tushunish va talqin qilishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Emojilar ilk bor 1990-yillarning oxirida Yaponiyada yaratilgan bo'lib, bugungi kunda raqamli dunyoda universal til sifatida shakllanib ulgurdi. "Emoji" atamasi yaponcha 絵 (e – rasm) va 文字 (moji – belgi) so'zlaridan kelib chiqqan. Emojilar yillar davomida sezilarli darajada rivojlanib, dastlabki 176 belgidan hozirgi kunda 3000 dan ortiq belgiga kengaygan bo'lib, ular his-tuyg'ular, obyektlar, faoliyat turlari va madaniy ramzlarning keng doirasini aks ettiradi. Raqamli muloqotning tobora global tus olayotgani emojilarning turli dunyo qismlaridan kelib chiqqan madaniy atamalarni, jumladan, oziq-ovqat, bayramlar, diqqatga sazovor joylar va boshqa madaniy o'ziga xos jihatlarini o'z ichiga olishini ta'minlab kelmoqda.

Shunga qaramay, emojilardan foydalanish va ularni talqin qilish turli madaniyatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu esa madaniyatlararo muloqotda bir-birni noto'g'ri talqin qilish va tushunish kabi muammolarni olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shu boisdan, emojilarning turli madaniy kontekstlarda qanday qo'llanilishini va tushunilishini, shuningdek, ularning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish yoki to'sqinlik qilishdagi vazifasini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar davrida emojilar madaniyatlararo muloqotning muhim qismi sifatida shakllanib, turli madaniy kontekstlarda insonlarning hissiyot, g'oya va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uslubini o'zgartirib yubordi. Keng qamrovli adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda emojilarni o'rganish borgan sari dolzarb bo'lib, ularning rivojlanishi, qo'llanish shakllari, funksional xususiyatlari va turli sohalaridagi amaliyotlariga bag'ishlangan nashrlar soni oshmoqda.

Emojilar raqamli texnologiyalar vositasida muloqot jarayonida an'anaviy ifoda shakllari – ohang, mimika va imo-ishoralar – chegaralangan sharoitda ifoda vositasiga ehtiyoj sifatida paydo bo'lgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emojilar bu bo'shliqni to'ldiradi, real hayotdagi ifodalarni aks ettiruvchi va raqamli suhbatlarda hissiy aniqlikni oshiruvchi vizual belgilar sifatida xizmat qiladi.

So'nggi tadqiqotlarda emojilardagi madaniy ifodaga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda. Biroq ushbu o'zgarishlar emojilarning madaniy talqinlari, ulardan foydalanish shakllari va ular ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytirish yoki kamaytirishga qanchalik hissa qo'shishi masalalarini tushunish zarurligini ham ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxslararo farqlar, madaniy kelib chiqish va turli madaniyatlarga xos omillar emojilardan foydalanishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Gender, yosh va millat kabi demografik xususiyatlar emojilarni afzal ko'rish va foydalanish chastotasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayollar ommaviy muloqotda emojilardan ko'proq foydalanishlari, erkaklar esa kengroq diapazonda qo'llashlari kuzatilgan. Bundan tashqari, emojilar milliy yoki etnik o'ziga xos ma'nolarga ega bo'lib, ularning talqini va qabul qilinishi madaniyatlar bo'ylab farq qilishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqot bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar emojilarning turli tillar va muloqot uslublariga integratsiyalashuvi masalalarini o'rgangan bo'lib, turli tillar emojilardan foydalanishga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu emojilarning kontekstga nisbatan hozirjavobligi va ularning turli madaniyatlar bo'ylab raqamli muloqotni shakllantirishdagi vazifasini tushunish zaruratini ta'kidlaydi. Adabiyotlar tahlilida emojilarni ko'p tarmoqli nuqtai nazardan o'rganish zarurati ta'kidlanib, ularning muloqot dinamikasi, psixologik idrok, marketing strategiyalari va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini hisobga olish lozimligi qayd etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar emojilardan foydalanishning turli madaniy kontekstlardagi murakkab tomonlari chuqurroq o'rganilib, global raqamli jamiyatda tushunish va birlashishni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilishi lozim deb hisoblaymiz.


TAHLIL VA NATIJA

Ushbu tadqiqot loyihasi emojilardagi turli madaniyatlarning ifodalanishini o'rganish, ularning madaniyatlararo muloqotdagi rolini tahlil qilish hamda turli madaniy kontekstlarda emojilarning tushunish va talqin qilishga ta'sirini o'rganish uchun aralash usullar yondashuvini qo'lladik. Tadqiqot doirasida 100 nafar ishtirokchi (ularning aksariyati talabalar va o'qituvchilar bo'lib, emojilardan foydalanish tajribasiga ega) o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma ishtirokchilarning emojilardan foydalanish odatlari, afzalliklari va talqinlariga qaratilgan edi.

So'rovnoma natijalari ishtirokchilarning javoblaridan kelib chiqib tahlil qilindi. Ishtirokchilardan ijtimoiy tarmoqda suhbat jarayonida emojilardan nima maqsadda foydalanishlari so'raldi va ularning 64% asosan kayfiyatini ifodalash uchun foydalanishlarini belgilashgan.


Ushbu tadqiqot uchun o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarga emojilarning madaniy xususiyatlarini tushunish, emojilar talqinidagi madaniy farqlar haqidagi xabardorlik va ularning madaniyatlararo muloqotga ta'siri bo'yicha bir qator savollar berildi. Javoblar tahlil qilinib, emojilarning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va madaniy inklyuzivlikni targ'ib qilishdagi o'rni haqida umumiy tushunchalarni aniqlashga qaratilgan.

So'rovnoma qaysi ijtimoiy tarmoqdan ko'p faol foydalanasiz degan savolga 92 ta foydalanuvchilar asosan Telegramdan foydalanishlarini ko'rsatib o'tgan.



Jadval 1. Qaysi ijtimoiy tarmoqdan keng foydalanasiz?

So'rovnoma ishtirokchilari asosan yoshlarni tashkil etganligi sababli deyarli barchasi Telegram ijtimoiy tarmog'idan asosan muloqot uchun, yangilik va xabarlar uchun Youtube platformasidan foydalanishlarini, 38% ishtirokchilar esa ko'roq Instagramdan foydalanishlarini ta'kidlashdi.



Jadval 2. Rangli emojilardan ishtirokchilarning xabardor va xabari yo'qligi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 53 foizi emojilarda turli rang variantlari mavjudligini bilsa, qolgan 47 foizi bu xususiyatdan bexabarligini bildirishgan. Bu ayrim foydalanuvchilarda emojilardagi madaniy xilma-xillik borasidagi

xabardorlikning yetarli emasligini ko'rsatadi. Ishtirokchilardan emojilarda madaniy ramzlar borligini sezgan-sezmaganliklari haqida so'ralganda, 66 foizi bu savolga ijobiy javob berdi. Bu esa emojilardagi madaniy ifodalarning tobora ko'zga tashlanib, e'tiborni tortayotganidan dalolat beradi.

Ishtirokchilardan boshqa madaniyatlarga xos ramzlarni o'z ichiga olgan emojilardan foydalanish (masalan, an'anaviy o'zbek madaniyatidan boshqa madaniy belgilar) haqida so'raldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning yarmidan ko'pi (69 foizi) bunday emojilardan ba'zan yoki tez-tez foydalanadi. Bu esa madaniy belgilarni o'z ichiga olgan emojilarning kundalik muloqotda keng qo'llanilayotganligini va raqamli muloqot amaliyotlarining globallashtirayotganligini tasdiqlaydi.

Bu natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilar ko'p tajribaga ega bo'lmasa ham, emojilarning madaniy bo'shliqlarni to'ldirish va madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishdagi salohiyatini tan olishadi.

Deyarli barcha ishtirokchilar (98%) emojilarning ma'nolari madaniyatlararo farq qilishi mumkinligini tan oldilar. Bu natija tabiiyki, harakatlar kabi emojilarning ham turli madaniy kontekstlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ishtirokchilar emojilarning madaniyatlararo muloqotdagi asosiy kamchiliklarini ta'kidlab o'tdilar: 76% ishtirokchilar emojilarning talqindagi farqlar sababli madaniyatlararo muloqotda noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkinligiga ishonishadi va 53% esa bu madaniy bilimlarni tushunmaslikga olib kelishi mumkin deb hisoblaydi.

Sharqda  (dimlangan guruch) va  (ramen) emojilarining keng tarqalishi, ushbu mintaqalarda mavjud bo'lgan oziq-ovqat odatlari va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Aksincha, G'arbda go'shtga oid emojilar (masalan , , (grillangan go'sht)) ko'proq ishlatiladi, bu esa o'sha mintaqalarda mavjud bo'lgan oziq-ovqat odatlari va madaniy me'yorlarni ko'rsatadi. Emojilarni ishlatishdagi bu farq nafaqat oziq-ovqat odatlariga o'xshash, balki har bir mintaqaning o'ziga xos madaniy va ijtimoiy asoslarini ham yoritadi.

Sharq madaniyatida oziq-ovqat jamiyat ritualari va oilaviy marosimlarda muhim rol o'ynaydi, ko'pincha birlik va iliqlikni ifodalovchi ramz sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun oziq-ovqatga oid emojilar, masalan,  (issiq sho'rva),  (dumplinglar),  (choy),  (chopstik) va  (bayram fonarlari) ko'pincha birlashuv va jamoatchilik tushunchalari bilan bog'lanadi. Ushbu emojilardan muloqotda foydalanish nafaqat oziq-ovqat haqida ma'lumot beradi, balki hissiy bog'lanishlar va birga bo'lish hissini ham ifodalaydi.

Boshqa tomondan, G'arb madaniyati go'shtni oziq-ovqatning asosiy tarkibiy qismi sifatida muhim hisoblaydi, shuning uchun go'shtga oid emojilar ko'pincha kuch, hayotiylik va shaxsiy qoniqish kabi tushunchalar bilan bog'lanadi. (Grill qilingan go'sht)  va  (steyk) emojilari ko'pincha individul afzallik va erkinlikning ramzi sifatida qoraladi. Muloqot kontekstida, bu go'shtga oid emojilar ko'pincha insonga xos did va ko'ngil to'lishini ifodalaydi, bu esa shaxsiy tanlovni qadrlaydigan madaniyatni aks ettiradi.

G'arbda o'yin pultlarining keng tarqalishi va o'yin madaniyatining ommaviy tarzda qabul qilinishi sababli,  (o'yin pulti) emojisi "bo'sh vaqt"ni ifodalashda keng qo'llaniladi. Biroq Sharqda ayniqsa Xitoyda, siyosiy cheklovlar tufayli bu emojilar 2014-yildan boshlab bazalarda keng tarqalgan bo'lmasligi mumkin.

Turli madaniy kontekstlarda bir xil emoji butunlay boshqa talqinlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, kuchni ifodalovchi emoji () madaniy kontekstdan qat'i nazar, turlicha talqin qilinadi. Kanadada odamlar uni mushaklarni ko'rsatish ramzi sifatida talqin

qilishlari mumkin; arab mamlakatlarida esa bu “yomon tana hidiga ega ekanligini” bildirishi mumkin; nemislar uchun esa, bu emoji “sukunat kuchdir” degan ma’noni anglatishi mumkin. Xuddi shuningdek, Amerika madaniyatida (😬) emoji odatda “oddiy yoki normal” degan ma’noni ifodalash uchun ishlatiladi, ammo yapon ijtimoiy tarmog’ida bu emoji “yomon yoki tugadi” degan ma’noni anglatishi mumkin. Yaqin Sharqda esa (😬) emoji har doim ham ijobiy va do’stona his-tuyg’ularni ifodalash uchun ishlatilmaydi, aksincha, ba’zan bu, haqoratli ifoda sifatida qaraladi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’zbek va G’arb madaniyatlari o’rtasida qadriyatlar va muloqot usullari bo’yicha katta farqlar bor. G’arb madaniyati odatda to’g’ridan-to’g’ri va aniq muloqot usulini qabul qiladi, bu esa bevosita ifodalanishni va aniq tushuntirishni talab etadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Sharq madaniyati ko’proq bilvosita va ma’noli ifodalarga, tilning eyufemizm va tavsiflariga e’tibor qaratadi. Bu Hofstedening madaniy o’lchovlar nazariyasiga ham mos keladi, u madaniyatlarni yuqori-kontekstli va past-kontekstli madaniyatlarga ajratadi. Yuqori-kontekstli va past-kontekstli madaniyatlar o’rtasidagi muloqot uslublaridagi farqlarni hisobga olib, tegishli tadqiqotlar aniq tushuntirishlar va dalillar taqdim etgan. Bir nechta mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Irlandiya, Tayland va AQShda olib borilgan madaniy tadqiqotlar muloqot uslublarining madaniy kontekstga qanday bog’langanligini o’rganish uchun ma’lumotlarni yig’di. Tadqiqot natijalari Hindiston va Tayland kabi yuqori-kontekstli mamlakatlarda muloqot uslublari ko’proq ziddiyatdan qochish va bo’ysunish holatiga moyil, G’arb mamlakatlari bo’lgan Irlandiya va AQShda esa muloqot uslublari ko’proq mustahkam va hukmron bo’lishi mumkinligini ko’rsatdi.

Sharq madaniyatida hurmat madaniyatining chuqur ildizlari va yuqori kuch masofasi emoji foydalanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, Sharq madaniyatida odamlar hurmat yoki uzr so’rash uchun ma’lum turdagi emojilarni ishlatishlari mumkin, bu esa boshqalarga hurmat va kamtarlik bilan yondashishni aks ettiradi. G’arb madaniyatida esa, odamlar odatda shunday tushunchalarni ifodalash uchun matn shakllarini to’g’ridan-to’g’ri ishlatishga moyil, emojilardan ko’p foydalanmasliklari mumkin. Shuningdek, Sharq madaniyatida kuch masofasi kontsepti nisbatan aniqroq ifodalanagan, ayniqsa rasmiy holatlarda, masalan, ish joylarida. Shuning uchun, bu kabi holatlarda emojilardan foydalanish ko’pincha noto’g’ri belgilardan foydalanish tufayli yuzaga keladigan tushunmovchiliklar yoki haqoratning oldini olish uchun cheklovlariga bog’liq. Bunga qarshi ravishda, G’arb madaniyatida individualistik tendensiyalar va tenglik tushunchasi odamlar uchun emojilardan foydalanishda yanada erkin va nozik muhitni ta’minlaydi. Odamlar har xil holatlarda emojilarni moslashuvchan tarzda ishlatishga moyil, masalan, (👉) kabi ramzlardan rozi bo’lish yoki qo’llab-quvvatlashni ifodalash uchun foydalanishadi, bu esa G’arb madaniyatining shaxsiy ifoda va muloqot uslublariga bo’lgan ahamiyatini va bag’rikengligini to’liq namoyon etadi.

XULOSA

Emojilar oddiy belgilar to’plamidan global raqamli davrning madaniy jihatdan boy va murakkab kommunikatsiya shaklini aks ettiradigan vositaga aylangan. Ushbu tadqiqot emojilarning madaniy tafovutlarni yengishda, aniqroq muloqotni amalga oshirishda va turli demografik, madaniy kontekstlarda inklyuzivlikni oshirishda muhim rol o’ynashini ta’kidladi. Bu global foydalanuvchilarning turli ehtiyojlari va kontekstlarini yaxshiroq tushunish uchun emoji dizayni va tanlash jarayonlarining doimiy ravishda rivojlanishini zaruratini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, raqamli muloqot rivojlanishda davom etar

ekan, emojilardan global bog'lanishni va madaniy yaqinlikni kuchaytirish vositalari sifatida foydalanishni tushunish va amalga oshirish ham o'sishi kerak. Emojilar faqat ifoda vositalari emas, balki turli madaniyatlarni keng raqamli maydonda bog'laydigan ko'prik vazifasini bajaruvchi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Archer, D., and R. M. Akert. "Words and everything else: Verbal and nonverbal cues in social interpretation". *Journal of Personality and Social Psychology*, vol. 35, no. 6, 1977, pp. 443–49. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.35.6.443>.
2. Bai, Qiyu, et al. "A Systematic Review of Emoji: Current Research and Future Perspectives". *Frontiers in Psychology*, vol. 10, 2019. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2019.02221>.
3. Croucher, Stephen M., et al. "Conflict Styles and High–Low Context Cultures: A Cross Cultural Extension". *Communication Research Reports*, vol. 29, no. 1, 2012, pp. 64–73. <https://doi.org/10.1080/08824096.2011.640093>.
4. Derks, Daantje, et al. "Emoticons and online message interpretation". *Social Science Computer Review*, vol. 26, no. 3, 2008, pp. 379–88.
5. Gaspar, Rui, et al. "Beyond positive or negative: Qualitative sentiment analysis of social media reactions to unexpected stressful events". *Computers in Human Behavior*, vol. 56, 2016, pp. 179–91.
6. Hofstede, Geert. *Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations*. Sage publications, 2001.
7. Lin, Ting-Ju, and Chien-Hsiung Chen. "A preliminary study of the form and status of passionate affection emoticons". *International Journal of Design*, vol. 12, no. 2, 2018.
8. Tossell, Chad C, et al. "A longitudinal study of emoticon use in text messaging from smartphones". *Computers in Human Behavior*, vol. 28, no. 2, 2012, pp. 659–63.